

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDOSHUVLAR

Ahmadova Gulruh Kamolovmona

**Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumani
26-DMTT direktor o'rinbosari**

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning o'rni hamda ta'lim-tarbiyaning pedagogik metodlari va xususiyatlari haqida fikr mulohazalar yuritilgan. Shuningdek maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy yondoshuvlar asosida bolani tarbiyalashning ilmiy jihatlari tahlil qilib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, texnologiya, zamonaviy dastur, axloq, estetika.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli salbiy omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yillar davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 2016 yilga kelib 27 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"da PF-5198-son farmonida ta'kidlaganidek, Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'in hisoblanib, u har tomonlama sog'om va barkamol bola shaxsini tayyorlash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu farmonga muvofiq maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy dastur va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Dasturning asosiy vazifalari sifatida ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda bolalarni intellektual axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish belgilangan. Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda maktab ta'limiga tayyorlash kabi talablarini belgilaydi. Bolalarning bilim, ko'nikma va malakalari, ularning har tomonlama rivojlanishi hamda maktab ta'limiga tayyorgarlik

darajalari davlat talablarda nazarda tutilgan mashg'ulot va faoliyatlarni o'tkazish jarayonida talablarning bajarilishini kuzatish, o'rganish, tahlil qilish va baholash orqali aniqlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash vazifalari esa shaxsni tarbiyalash maqsadlari asosida ularning yoshiga va xususiyatlariga qarab belgilanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya majmuasidan iboratdir. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotlarda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarini esa aniqlab mustahkamlaydi. Bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Demak, mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egallab boradi. O'z-o'zini anglay boshlaydi hamda bilim olishga intiluvchan bo'lib boradilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Ayniqsa, bolalarga bilim berishni jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega. Birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta'sir etishadi, o'z tashabbusi, topag'onligini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi. Bu borada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarlarda xususan o'g'il bolalarda o'g'il bolalik jinsidan kelib chiqib ularga nafaqat ta'lim berish balki o'g'il bolalik tarbiyasini berish lozim. Bunda o'g'il bolalarni jamoa bo'lib ishlashga ularda erkaklik hislaridan kelib chiqib ta'limning noan'anaviy metodlari orqali yondashishni taqoza qiladi. Chunki o'g'il bola ertaga oila deb atalmish qo'rg'onning egasi bo'ladi. Ana shu qo'rg'onning kaliti hamisha o'g'il bolaning qalb kechinmalari bilan shakllanishi lozim. Mana bunda ta'limning o'ziga xos jihatlarni ko'rishimiz yoki idrok etishimiz mumkin. Albatta, qiz bola qiz bolalik jinsidan kelib chiqib ham ta'lim, ham tarbiyani olmog'i bugungi jamiyatning eng asosiy muammolaridan biri bo'lib turibdi. Dunyo shiddat bilan o'zgarayotgan bir paytda qiz bolalarni shanini va nomusini asrab avaylash murakkab tarbiya va ta'lim jarayonining o'ziga xos yo'lidir. Bu yo'lda qiz farzandiga o'z vaqtida vaqt ajratib uning dard tashvishlari, hayot kechinmalari, qiziqishlar olami bilan yaqindan tanishib unga yordam beraolsa o'ylaymanki qiz bola tarbiyasi uchun o'z burchini sadoqat bilan bajaraolagan bo'ladi. Bog'cha yoshidan boshlab qiz bolalarni turli xil borliqning, tabiatning va koinotning sir asrorlari bilan tanishtirib borish muhim deb o'ylayman va bu borada albatta davlatimiz "Ota-onalar universiteti"ga tayanishi va ishonishi lozim.

Bolalar ishiga zo'r berishni talab etuvchi vazifa qo'yilganda birgalikda qayg'urishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish-yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs o'yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o'qishda paydo bo'lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do'stona jamoasini yaratishga yordam beradi, birga ishlash, yashashga o'rgatadi.

Shuningdek, maktabgacha ta'limda sifatli ta'lim tarbiyani tashkil etishda xorijiy davlatlarning ta'lim dasturlaridan andoza olib milliy ta'lim va tarbiya metodikamizga uyg'un holda rivojlantirilmoqda. Bu borada Janubiy Koreya, Buyuk Birtaniya, AQSH kabi davlatlarning ilm-fan tamadduni o'rganilmoqda va bu borada keng ko'lamlı samarali ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Aynan Buyuk Britaniyada odatda ta'lim berish o'rganilayotgan predmet yoki o'qituvchiga emas balki bolaga yo'naltiriladi. Bunday yondashuv ingliz ta'limi tarixiga asoslanib uning rivojlanishiga Russo, Frebel, Montessori ta'sir ko'rsatganlar. Ular bolaning individualligini rivojlantirish va mustaqilligini himoya qilish kerak deb hisoblaydilar. Maktabgacha tarbiyaning asosiy maqsadlari: har bir bolaning ehtiyoji va uning manfaatlarini qondirish, bolalar o'rtasidagi farqni hurmat qilish. Bunda bola o'qish uchun ichki intilishga ega, qiziquvchan va tabiatan serg'ayrat, deb taxmin qilinadi. O'qitish bolaning o'zi taklif qilgan o'yini davomida olib borilishi kerak. Ustozning asosiy vazifasi bolaga uqtirish yo'li

bilan emas, balki o'yinni qo'llab turish, unga tadqiqot o'tkazish uchun turli materiallar taqdim etishdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga tayyorlashda yozish va o'qishdan tashqari qo'shiq kuylash, she'r aytish, raqsga tushish o'rgatiladi, eng kichik yoshdagilar esa eng mayda motorika mashqlarini bajaradilar, abstrakt fikr yuritishga mo'ljallangan o'yinlar o'ynaydilar, bir birlariga yordam berishda ularda o'zaro hamkorlik ko'nikmalari shakllantiriladi. Shu bilan birga ranglarni ajratish, raqam va harflarni o'rganadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda tarbiyachilar bolalarning rivojlanishi, ham ruhiy shakllanishi darajasi diagnostikasi uchun mazmuniy rolli o'yinlar, rasm chizish va narsalar yasashni juda foydali usul deb hisoblaydilar. AQSHda bolalar tarbiyasining asosiy jihatlaridan biri bolaga kattalardek munosabatda bo'lish hisoblanadi. Bola shaxs va unga quloq tutish va fikrini hurmat qilish lozim. Albatta uni yo'naltirib turish kerak, lekin buyruq tariqasida emas nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligini tushuntirish orqali.

Bola shaxsini shakllantirish nihoyatda nozik masaladir. Bu borada bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'limga moslashtirish benihoyat katta mehnat va ma'suliyat talab qilmoqda. Aynan ota-bobolarimiz tomonidan bola tarbiyasi borasida bir qancha ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik fikrlar, g'oyalar va qarashlar ilgari surilgan. Bolani jamiyatga moslashtirish shaxs sifatida uni ijtimoiy hayotga tayyorlash bir qancha murakkab bosqichlarni va amaliyotlarni amlaga oshirishga undaydi. Bu borada dunyo tajribasi ham har bir dunyoga kelayotgan bo'lajak fuqarosini tarbiyalab shaxs sifatida kamolga yetkazishda judda katta moddiy va ma'naviy mehnat resurslarini sarflamoqda. Xususan AQSh bitta fuqarosini tug'ilib to shaxs bo'lib jamiyatda o'z o'rnini topib ketgunga qadar 214 ming dollar mablag', Janubiy Koreya esa 174 ming dollar mablag' sarflar ekan. Aynan uzluksiz ta'limning tayanch bo'g'ini Maktabgacha ta'limda bola shaxsini ulug'lash ularga "Hazrati inson sifatida qarash" kabi tushinchilarni bugun ijtimoiy hayotimizda o'zimizning burchimiz ekanligini anglab turmog'imiz lozim.

Mashg'ulot bolalar bog'chasida bolalarga ta'lim berishning asosiy shaklidir. Mashg'ulot-bu tarbiyachining bolalarni kerakli bilim va malakalardan umumiy holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigienik, xulq madaniyati, nutqi, sanoq-hisob, harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi.

Xulosa tariqasida aytish joizki, horijiy mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarini o'rganish ularning ilg'or tajribasini tahlil etish va respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo'yicha aniq chora tadbirlarni ishlab chiqish mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirib, zamonaviylashtirishga imkon yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"da PF-5198-son farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 apreldagi "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3651-sonli qarori.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori.